

# “ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSINI O‘RGANISH MASALALARI”

mauzusidagi 69-ilmiy xalqaro konferensiya materiallari

## ANVAR OBIDJON ASARLARIDA NAVOIY DAHOSI

**Zafar Mamatalimov**

*Alfraganus University dotsenti,*

*filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)*

[mamatalimovz@gmail.com](mailto:mamatalimovz@gmail.com)

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada muallif Anvar Obidjonning bolalar adabiyotida deyarli o‘rganilmagan dramatik dostoni xususida o‘z mulohazalarini bayon qilgan. Shuningdek, shoirning turkum she‘rlar, nasriy asarlar yaratishda Navoiy merosidan ijodiy foydalanish mahoratiga e‘tibor qaratiladi.*

**Kalit so‘zlar:** *stilizatsiya, kolorit, pafos, tasavvuf, prolog, ramz, nazira, adaptatsiya, tashbeh, munozara, muloqot.*

**Аннотация:** *В данной статье идет речь о малоизученной драматической поэме Анвара Обиджона. В том числе автор уделяет внимание на творческое мастерство поэта в создании лирических и прозаических произведений пользуясь сокровищами великого поэта Алишера Навои.*

**Ключевые слова:** *стилизиция, колорит, пафос, суфизм, пролог, символ, назира (газель, написанная следуя ранее созданной), адаптация, метафора, спор, общение.*

**Annotation:** *In the article the author stated his own opinions about little learned dramatic epos of A.Obidjon in the children’s literature. Also, the poet is supported to create group poems, prosaic novels basing on the inheritance of A.Navai.*

**Key words:** *stylization, colorate, paphoce, tasavvuf (the steps of bringing to perfection according to religion), prologue, symbol, nazira (writing poem like somebody’s), adaptation, metaphor, controversy, discourse.*

O‘tgan asrning 40-yillarida Oybek tomonidan yaratilgan “Alisherning bolaligi”, 60-yillarida yozilgan Mirkarim Osimning “Zulmat ichra nur” kabi Navoiyning yoshlik yillaridan hikoya qiluvchi ayrim asarlar mustasno qilingan holda so‘nggi yillar o‘zbek bolalar adabiyotida Navoiyga bag‘ishlab yaratilgan asarlar salmog‘i unchalik ko‘p emas. Ayniqsa, bugungi kunda boshqa adabiy turlarga qaraganda anchayin oqsashi kuzatilayotgan dramaturgiya sohasida ayni shu mavzudagi biror asarni ajratib ko‘rsatish mushkul.

Anvar Obidjonning dramatik doston janrida yozilgan “Alisher ila Husayn yoki uch dono va o‘g‘ri” asari, nazarimizda, mana shu kemptiklikni biroz to‘ldirib turgandek. Sarlavhada ko‘rsatilgan to‘rt qahramon o‘rtasida kechgan suhbat-munozara asosiga qurilgan doston voqealari koloritida yosh Alisherning xarakter-xususiyatlari asta-sekinlik bilan ochila boradi. Ayniqsa, o‘g‘ri bilan muloqotida uning rahmdilligi, haqgo‘yligi, Husayn bilan muloqotida do‘stga sodiqligi, zulmga qarshi nafrati, Qalandar bilan suhbatida esa jonkuyarligi, ilmga chanqoqligi kabi fazilatlari namoyon bo‘ladi.

# “ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSINI O‘RGANISH MASALALARI”

mauzusidagi 69-ilmiy xalqaro konferensiya materiallari

Jumladan, Alisherning “O‘zimizda pishiq darslik kam...” deya kuyunchaklik bilan aytgan so‘zlariga qalandar shunday munosabat bildiradi:

*Ulg‘ay.Olim bo‘l-da, yozib ko‘r.*

*Bir turkningmas, arab, forsning ham*

*G‘aznasini chuqur qazib ko‘r [1.104].*

Mazkur misralar orqali go‘yo Alisherning qalbida “Xamsa”, “Muhokamat ul-lug‘atayn”, “Lison ut-tayr”day bebaho durdonalarni yaratish g‘oyasi hali yoshlik pallalaridayoq nish ura boshlagani dalillanadi.

Dostonda Qalandar tarjimayi holiga oid chizgilarga biroz kengroq o‘rin beriladi. U bir vaqtlar saroydagi bazmlarga, shon-shuhratga o‘ch bo‘lgani holda o‘zligidan kechib, manmanlikka berilgan bo‘lsa-da, tavba-tazarrular qilib sekin-asta nafsi, kibrini yenga olgani, yetuk avliyo maqomiga erishgani, haj ziyoratiga otlanishi lavhalarida tasavvufiy g‘oyalar o‘z ifodasini topgan. Asar so‘ngida qalandar Marg‘iloniyning buyuk fiqhshunos Burhoniddin Marg‘inoniy avlodi ekanligiga nozik ishora qilingan lavhalar asarning kuchli pafosga ega nuqtalaridan biridir. To‘g‘ri, yosh kitobxon Nuh, Hotam, Mansur Xalloy, Qul Ahmad, Boyazid Bistomiy kabi nomlar keltirilgan misralar mag‘zini chaqishda biroz qiynalishadi. Bu o‘rinda ijodkor ustalik bilan o‘quvchi qalbiga undash ma‘nosida “cho‘g‘” tashlaydiki, natijada tinib-tinchimas bolakaylarda kitobxonlik madaniyati shakllana boradi. Bordi-yu kattalar (o‘qituvchi) tomonidan mazkur nomlar bilan bog‘liq hikoyatlar so‘zlab berilsa yoxud o‘qib chiqish tavsiya etilsa, ularning ma‘naviy olami yana bir necha asar bilan boyishiga also shubha yo‘q.

Mutolaa davomida Qalandar obrazi muallifning millat haqida o‘ylari, kelajak avlod oldidagi burch, insoniylik, umr mazmuni borasidagi qarashlarini o‘zida mujassam etganiga amin bo‘lamiz.

O‘zida komik holatlarni jamlagani bilan o‘g‘ri obrazi doston voqealarini harakatga keltirib turadi. Uch oydan beri eski kasbini sog‘inib, qalandarga tegishli narsalarni yolg‘ondakam o‘g‘irlab, yana joyiga qaytarib qo‘yayotgan o‘g‘rining ahvoli Alisher va Husaynga juda ajablanarli tuyuladi. Qalandarga savol nazari bilan qaraganlarida u:

*Taqdirga tan bergunicha kal,*

*Bitli sochin qo‘msab yashaydi [1.101],*

deya javob beradi. Folklorga xos janr stilizatsiyasi orqali o‘g‘rining fojeyi qismati lo‘nda ifoda etiladi. Asar boshlanmasida mashg‘uloti faqat cho‘ntakkesarlik, birovlarining haqiga xiyonat qilishdan iboratdek tuyulgan o‘g‘ri asta-sekinlik bilan “Mening o‘g‘rigina bolam” (G‘.G‘ulom) hikoyasi qahramoniga o‘xshab “suyumli” bo‘lib boraveradi. Hattoki ayrim o‘rinlarda kitobxonda o‘g‘rining “to‘rtinchi dono” ekanligi haqida ishonch paydo bo‘ladi:



# “ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSINI O‘RGANISH MASALALARI”

mauzusidagi 69-ilmiy xalqaro konferensiya materiallari

*Chaqaloqqa odmiroq so‘zlang,  
Pandni qing‘ir idrok etmasin.  
Lahim kovlab Misr yo Tehron  
Tillolarin urib ketmasin. [1.104]*

Bolalar uchun yoziladigan asarlar tili sodda, har qanday jimjimadan xoli bo‘lishi kerakligi, muallif maqsadi oson uqib olinadigan bo‘lmog‘i lozimligi to‘g‘risida o‘g‘ri yosh Alisherga “saboq”lar beradi. O‘zining turkiy qavmga mansub ekanligi bilan faxrlanishi, ustoziga cheksiz hurmati, Yaratganni anglab, hidoyat yo‘liga yuz burishi o‘g‘rining buyuk qalb sohibiga aylanganini ko‘rsatadi.

Asar voqealari qurilmasida ramziylikka alohida e‘tibor qaratilgani sezilib turibdi. Prolog sifatida berilgan parchada kekxa qalandarning so‘nik gulxan atrofida kitob mutolaa qilib o‘tirish lavhasi bor. Drama so‘ngida esa Alisher va Husayn tomonidan o‘tin terib solinishi natijasida gulxan miltirab-miltirab yonayotgani tasvirlanadi. Go‘yoki qalandar purhikmat so‘zlari bilan ikki yosh go‘dakning qalbiga so‘nmas olov solgan-u, ular ulg‘aygan sari bu olov katta gulxanga aylanib, o‘z tafti bilan qanchadan qancha mazlumlar ko‘nglini yoritadi. Xotimadagi sukunat, isyon, olovdan sachrayotgan “chirs-chirs” ovoz kabi ifodalar ramz kuchini yanada oshirgan.

Anvar Obidjonning hattoki boshdan oyoq komik ruh ufurib turuvchi usta Gulmat, Kulkul afandi turkumidagi she‘rlarida ham Navoiy dahosiga cheksiz ehtirom yaqqol sezilib turadi. Turkumda Gulmat Shoshiy havasmand shoir sifatida turli “janr”larda qalam tebratganini ko‘rish mumkin. U Navoiyning she‘riyatdagi mavqe – darajasini o‘zi uchun mezon hisoblaydi. Mana bu g‘azaldagi:

*Yuz yilda bir kelur mandek nodirso‘z,  
Ko‘kka ikki oy chiqmog‘i – qo‘shbaxtdan.*

*Mir Alisher tobakay so‘z xoqoni,  
Bizgayam joy toping biror bo‘sh taxtdan [2.336]*

misralari Gulmatning dabdababozlik, quruq safsatabozlikka moyil xarakterini ochishda juda qo‘l keladi.

Yuqorida aytilganidek, aslida uncha-muncha shoirni shoir hisoblamaydigan Gulmat qancha balandparvoz so‘zlamasin, ijodidan qancha faxrlanmasin, o‘z haddini, iqtidorining chek-chegarasini biladi. Munozara-muloqot shaklida yozilgan quyidagi she‘riy parchada avomning bergan “shunchaki savollari”ga Gulmatning “shunchaki javoblari” o‘quvchida kulgi uyg‘otsa-da, zamirida katta hayotiy haqiqatlar, katta umumlashma xulosalar mujassam:

*–O‘limdin ham yomoni bu nedur jumboq?*

# “ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSINI O‘RGANISH MASALALARI”

mauzusidagi 69-ilmiy xalqaro konferensiya materiallari

–*O‘z uyingda o‘zgin joy tilab turmoq...*

–*Tangriga teng bo‘lolg‘ay qay mahal ummat?*

–*Mir Alisherga qachon bas kelsa Gulmat [2. 344]*

Gulmatga chevare bo‘lmish Kulkuliy ham falsafabozlikda, olimona nasihatgo‘ylikda bobosidan qolishmaydi. Go‘yoki Navoiyning yor ta‘rifi uchun qo‘llagan tashbehidan qoniqmagan Kukul u bilan ijodiy bahsga kirishib, “o‘zdirib” so‘z aytishni xohlaydi:

*Bir go‘zalni madh aylamish Mir boboning o‘zlari:*

*Kiprigining soyasinda ul parining yuzlari...*

*Jahonga bir aytsin endi Kulkuliy ham o‘xshatib:*

*Yotar burnim soyasinda uch mahalla qizlari [3. 21].*

Ko‘rinib turibdiki, mazkur ifodalar Anvar Obidjonga qahramonlarining ichki va tashqi qiyofasini chizish orqali xarakter yaratishida juda qo‘l kelgan. Yana shuni aytish mumkinki, Navoiyga ko‘r-ko‘rona taqlid qiluvchilar “patdan qalam yo‘ndirib”, salla, to‘n kiyib o‘ziga shoirona tus bersa-da iqtidor yo‘qligidan izza bo‘lib qolishi “Navoiyga o‘xshash-chun...” hazil she‘rida, shoir g‘azallaridagi asl ma‘noni teskari talqin qiladigan kimsalar “Navoiy va svetafor” hikoyasida ayovsiz fosh etiladi. Mazkur hajviy hikoyada adabiyotshunoslikda shov-shuv ko‘tarishni maqsad qilgan Raisberdi suhbatdoshlariga savol ustiga savol yog‘diradi: “Navoyida shunday satr bor: “Bandi-bandim zulfi zanjirig‘a payvand aylangiz”. Xo‘sh, shoir bobo bu gaplari bilan nimani nazarda tutyaptilar? Mabodo, o‘sha davrning pandavaqi olimlariga svarka apparati kashf etish payti keldi, deb shama qilmaganmikanlar?” Yoki “Shu‘layi ohim chiqar har yon qizil, sorig‘, yashil”. Xo‘sh, bu svetafor bo‘lmay nima?” [4.197] Yozuvchi hikoyada Raisberdi xarakteriga xos chizgilarni kitobxonga taqdim etmasa ham, “ulkan gap”lari, paydar-pay savollari orqali uning siyrati o‘quvchi ko‘z o‘ngida bor bo‘yi bilan namoyon bo‘ladi. Bu masalaning bir tomoni. Ikkinchi tomondan, yumor vositasida bugungi kunimizda ham Raisberdi singari ulug‘ shoir asarlariga o‘zlari bichgan to‘nni kiygizmoqchi bo‘layotgan “olimlar” kulgi qilinadi.

Shuningdek, shoirning turli yillarda chop etilgan to‘plamlaridagi ayrim raqamli she‘rlarining vazni, radifi, umumiy ruhida Navoiy g‘azallarining ta‘sirini anglash qiyin emas. Xususan, Gulmatiy tilidan aytilgan 9-raqamli g‘azal Navoiyning “O‘n sakiz ming olam oshubi...” g‘azaliga, 13-raqamli g‘azal “Ey sabo...” g‘azaliga ergashib yozilgani yaqqol sezilib turibdi. Bu holatni Gulmat shoirning “Bezgakshamol” devonidagi muxammas, mustazod janridagi hajviy she‘rlarida ham ko‘rish mumkin.



# “ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSINI O‘RGANISH MASALALARI”

mauzusidagi 69-ilmiy xalqaro konferensiya materiallari

## **Adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Obidjon A. O‘g‘irlangan pahlavon. T.: Cho‘lpon, 2006.
2. Obidjon A. Alamazon va Gulmat hangomasi. T.: Cho‘lpon, 1992.
3. Obidjon A. Bezgakshamol-2. T.: Sharq, 2003.
4. Obidjon A. Alamazon va Gulmat. T.: Ma’naviyat, 1998.